



NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH SAMARADORLIGI ZAMONAVIY TALABLARGA MOSLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-aprel kuni nodavlat ta'lim xizmatlari tizimini takomillashtirish, oliy va kasbiy ta'limda sifatni oshirish chora-tadbirlari taqdimoti bilan tanishdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari rivoji hamda investitsiyaviy muhit, eng avvalo, kadrlar salohiyati bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, oliy va kasbiy ta'lim tizimi doimiy takomillashtirib borilmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida xususiy sektorga berilgan imkoniyatlar tufayli 71 ta xususiy oliygo'ha va 51 ta xususiy texnikum tashkil etilib, ularda 500 ming nafarga yaqin talaba va o'quvchilar tahsil olmoqda. Buning natijasida mamlakatda oliy ta'lim bilan qamrov 9 foizdan 42 foizga oshdi.

Albatta, bugungacha amalga oshirilgan ishlar ko'plab yoshlarning kasbiy va oliy ma'lumot olishiga imkon yaratdi. Ammo nodavlat ta'lim tashkilotlarining barchasida ham ta'lim sifati birdek ta'minlanmagan.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida qabul parametrlari, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonlari hamda ilmiy salohiyatni sifat jihatidan yaxshilash, ularni zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish eng asosiy masalalardan biridir.

Shu bois, taqdimotda nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni tartibga solish,

litsenziyalash tizimini takomillashtirish hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha yangi tizimni joriy etishga qaratilgan takliflar muhokama qilindi.

Bu borada ilg'or xorijiy tajribalar asosida ikki bosqichli litsenziyalash tizimiga o'tish, ta'lim dasturlarini maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish hamda har besh yilda kompleks davlat akkreditatsiyasini tashkil etish bo'yicha takliflar bildirildi.

Shuningdek, taqdimotda rivojlangan davlatlarning eng ilg'or tajribasidan kelib chiqqan holda, ta'lim sifatini tashqi baholash bilan shug'ullanuvchi alohida mustaqil tuzilma tashkil etish hamda sifat nazoratining shaffof, xolis va adolatli tizimini joriy qilish tashabbusi ham ilgari surildi.

Ta'lim sifatini ta'minlash va tashqi baholashning joriy etilishi kasbiy va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish samaradorligi va ilmiy salohiyatni oshirib, ularning xalqaro reytinglardagi o'rini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'ZA

BUYUK ALLOMA NOMIDA NUFUZLI ILM MASKANLARI TASHKIL ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Al-Xorazmiy universitetini tashkil etish bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari 2022-yil avgustda Urganch shahridagi Al-Xorazmiy shaharchasi qurilishiga asos solgan edi. U yerda buyuk olim nomidagi universitet va ixtisoslashtirilgan maktab ham bo'ladi.

Taqdimotda mazkur ta'lim maskanlarini tashkil etish chora-tadbirlari, asosiy yo'nalishlari haqida axborot berildi.

Universitetda 3 ta: matematika va informatika, aerokosmik texnologiyalar muhandisligi hamda sun'iy intellekt fakulteti bo'ladi. Ularda iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, sanoat, xavfsizlik, energetika va ekologiya kabi sohalar uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Darslar o'zbek va ingliz tillarida, kredit-modul tizimi asosida olib boriladi.

O'quv jarayonlari "Yangi O'zbekiston" universitetining tajribasi asosida, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy Xalq Respublikasi, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning nufuzli oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Qabulni 2025-2026 o'quv yilidan boshlash rejalashtirilgan. Jami talabalar soni 4-6 ming atrofida bo'lishi ko'zda tutilgan.

Shaharcha hududida Toshkentdagi Muhammad al-Xorazmiy maktabining filiali ham tashkil etiladi. Unga 4-sinf bitiruvchilari tanlab olinadi. Ta'limning yakunlovchi 2 yili muhandislikka boshlang'ich tayyorgarlikka qaratiladi.

Davlatimiz rahbari universitet hududi nafaqat ta'lim, balki Xorazmning tarixiy-ilmiy va turizm salohiyati bilan uyg'un majmua bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Ushbu zamonaviy ta'lim muassasalarini tashkil etishga oid hujjat imzolandi.

O'ZA



BAG'RIKENGLIK, MO'TADILLIK VA MA'RIFAT TIMSOLI

Mamlakatimizda diniy-ma'rifiy sohadagi keng ko'lamli islohotlar xalqaro ekspertlar tomonidan yuksak baholanmoqda. Bu o'zgarishlar zamirida zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar, shaxslar, ilm-fanga ulkan hissa qo'shgan mashhur ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, boy ilmiy merosini keng targ'ib qilish ishlari mujassam.

Samarqand shahrida o'tkazilgan "Moturidiylik — bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifat ta'limoti" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman fikrimizni tasdiqlaydi. Ushbu nufuzli anjumanda "Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o'rni", "Moturidiylik ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar talqini", "XXI asrda moturidiylik ta'limotining

ahamiyati" kabi shu balarda muhokamarlar bo'lib o'tdi. Muftiylar, ilm-fan arboblari va ilmiy tadqiqotchilar o'z ma'ruzalarida buyuk bobomizning ilmiy merosi, moturidiylik ta'limotining mohiyati kabi muhim masalalarda so'z yuritdi.

► Davomi 2-betda

Yuksalish pallasi

PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI — YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM GAROVI

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari doimiy e'tiborda. Zero, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadadir.



Shuning uchun yurtimizda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlashga katta kuch va mablag' yo'naltirib kelinmoqda. Natijada maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sezilarli sifat o'zgarishlari ro'y berayotir.

Shubhasiz, barcha sohalaridagi islohot va o'zgarishlar natijadorligi maktab ta'limiga, yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga borib taqaladi. Shu bois, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash borasida keyingi yillarda ijobiy islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ta'lim sifatini oshirish, universitet faoliyatiga ilg'or ta'lim dasturlarini joriy qilish hamda zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish maqsadida Prezidentimizning 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi.

► Davomi 5-betda



O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi oldidan

AQLIY CHINIQISH — JISMONIY BARKAMOLLIK KAFOLATI

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, jumladan, shaxmatni ommalashtirish, sportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga katta e'tibor qaratilib, keng ko'lamli ishlar qilinmoqda. Bularning natijasi o'laroq, sportchilarni xalqaro musobaqalarda tarixiy yutuqlarni qo'lga kiritib, yurtimiz dovrug'ini dunyoga yanada kengroq yoymoqda. Xususan, Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida mamlakatimiz ishtirokchi davlatlar orasida umumjamoa hisobida 13-o'rinni, Osiyo qit'asida 4-o'rinni, turkiy va islom mamlakatlari hamda MDH bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

► Davomi 5-betda

KIMYO SANOATIDAGI YANGILANISHLAR

TARMOQ IQTISODIYOTIMIZNING MUHIM DRAYVERIGA AYLANTIRILADI

O'zbekiston noyob kimyoviy elementlar, turli foydali qazilmalar, xomashyo resurslariga boy geografik makonda joylashgan. Ta'bir joiz bo'lsa, Mendeleyev jadvalidagi barcha kimyoviy elementlarni yurtimizda tabiiy holda uchratish mumkin. Shu bois, O'zbekiston iqtisodiyotining asoslaridan biri kimyo sanoatidir. Mazkur tarmoq qishloq xo'jaligi, qurilish, to'qimachilik, farmatsevtika va energetika kabi ko'plab sanoat yo'nalishlari taraqqiyoti uchun ham asos bo'lib xizmat qilishi soha rivojiga alohida e'tibor bilan qarash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ayniqsa, dunyo iqtisodiyotida beqaror vaziyat, iqtisodiy buhron avj olayotgan hozirgi pallada kimyo sanoati taraqqiyot yo'lini aniq belgilab olish, xorijiy investitsiya hisobiga yangidan yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish, kimyo sanoati mahsulotlari turini ko'paytirish, tarmoqni diversifikatsiya qilish

kerak. Shu bois, joriy yil 22-aprelda davlatimiz rahbari kimyo sanoatidagi loyihalar ijrosi va tarmoqni diversifikatsiya qilish bo'yicha rejalar taqdimoti bilan tanishdi.

► Davomi 4-betda



Nuqtayi nazar TOMCHI TAQDIRI: SUV KETYAPTI, BIZ-CHI?

Bu haqda yozmasam bo'lmaydi. Sababi, shu paytgacha bu mavzuda chuqur o'ylamagan, aniqrog'i, bu kabi o'ylashga majbur qiladigan voqeani o'zimdagi his qilib ko'rman ekanman.

Yashab turgan xonadonimda qisqa ta'mirlash ishlari baxtdir. Usta issiq va sovuq suv tarmoqlarini sozlash uchun quvurlarni yangilash kerakligini aytdi. Rozi bo'ldim.

"Faqat bir kun vaqt ketadi, suvni tarmoqdan uzib turaman", dedi u.

"Baraka toping, tuzatib bersangiz bo'ldi", deya bozordan kerakli jihozlarni olib kelishga shoshildim.

Dam olish kuni, usta ishga kirishdi, men yordamchi

bo'ldim. Ularning ham ishi qiyin ekan, boshida jiddiy kirishgan edim, tushga yaqin holdan toydim. Keyin zeriktirmaslik uchun gapga zo'r berdim. Uyda bolalar bor, birin-ketin hojatxonaga kirishni boshladi.

Sovuq suv o'chirilgan, qo'shnidan suv olib, hojatxona suvdonini to'ldirib qo'ydim. Dastlab ikki-uch marta olib kelganimda bilinmadi. Keyingi safar 10 litr suv bilan suvdonni to'ldirdim, o'g'lim kirib chiqdi va tugmachani bosdi, bir deganda 10 litr suv oqib ketdi.

Yana 10 litr suv olib kelib quydim va tugmani bosdim. Buni ongli ravishda tasavvur qilish imkonsiz: bir daqiqada suv oqib ketdi. Boshimda kuchli og'riq turdi. Uyga ichish maqsadida 10 litr suv olib kelib qo'yaman — iste'mol uchun, bolalar chanaqaganda ichib ketaveradi. Bir haftaga yetadi. Hozir esa o'sha 10 litr suvni bir lahzada tugmachani bosib, yaroqsiz holga chiqarib yubordim. Suv ketdi, men esa...

► Davomi 3-betda

BAG‘RIKENGLIK, MO‘TADILLIK VA MA‘RIFAT TIMSOLI

Boshlanishi 1-betda

Tadbirda Misr, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, BAA, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Qatar, Pokiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi 20 dan ortiq davlatdan 70 dan ziyod muftiy, nufuzli islomshunos olimlar, davlat va jamoat arboblari, moturidiyshunos tadqiqotchilar, tarixshunoslar va diniy-ma‘rifiy soha vakillari qatnashdi.

Buyuk vatandoshimiz asos solgan moturidiylik maktabi va ta‘limoti e‘tiqod borasida asrlar davomida bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma‘rifat timsoli bo‘lib

kelmoqda. “Kalom ilmining sultoni”, “Musulmonlar e‘tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak e‘tiroflarga sazovor bo‘lgan Imom Moturidiy o‘rta asrlarda — g‘oyaviy kurashlar avj olgan o‘ta murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini keng ochib beradigan noyob ilmiy-ma‘rifiy asarlar bitgan, turli zararli oqimlar va jaholatga qarshi mardona kurashgan.

Olim nomi ulug‘lanib, 2020-yilda Prezidentimiz qarori bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilgan edi. Davlatimiz rahbarining joriy yil 14-martdagi “Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi

“

Buyuk vatandoshimiz asos solgan moturidiylik maktabi va ta‘limoti e‘tiqod borasida asrlar davomida bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma‘rifat timsoli bo‘lib kelmoqda. “Kalom ilmining sultoni”, “Musulmonlar e‘tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak e‘tiroflarga sazovor bo‘lgan Imom Moturidiy o‘rta asrlarda — g‘oyaviy kurashlar avj olgan o‘ta murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini keng ochib beradigan noyob ilmiy-ma‘rifiy asarlar bitgan, turli zararli oqimlar va jaholatga qarshi mardona kurashgan.

qarori ma‘naviy hayotimizdagi muhim voqealaridan biri bo‘ldi. U buyuk allomaning ibratli hayot yo‘li va boy ilmiy-ma‘naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etishda katta ahamiyatga ega. Zero, qaror moturidiylik ta‘limotiga xos bag‘rikenglik va mo‘tadillik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, qarorda mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni o‘tkazish ham nazarda tutilgan edi. Prezidentimizning tadbir ishtirokchilariga tabrigida ham Moturidiy hazratlarining boy ilmiy merosi ahamiyati, uni tadqiq qilish ishlarini jadallashtirish

haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Ushbu tabrikni anjuman ishtirokchilari ko‘tarinki kayfiyatda kutib oldi. Shunday ulug‘ insonlar ma‘rifatini dunyoga tarqatish, merosini chuqur o‘rganishda davlatimiz rahbari tashabbuskor ekanini mamnuniyat bilan e‘tirof etdi.

Bugun buyuk ajdodimiz qoldirgan boy ilmiy-ma‘rifiy merosning ahamiyati jahon miqyosida tobora ortib borayotganini inobatga olib hamda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining maqomi va nufuzini yanada oshirish maqsadida Prezidentimizning tegishli farmoniga ko‘ra, markazimiz Vazirlar Mahkamasi huzuriga o‘tkazildi.

Endi markaz Imom Moturidiy hazratlarining islom dini ravnaqiga qo‘shgan bebaho hisssasi va moturidiylik ta‘limotini chuqur tadqiq etishda turli mamlakatlardagi ulamolarni birlashtiradigan xalqaro platforma bo‘lib xizmat qiladi. Bu ham kelgusidagi tadqiqotlar samaradorligini ta‘minlaydi.

Jamoliddin KARIMOV, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori

ISLOM OLAMINING HAQIQ USTOZI

Abdurahmon VAHOBZODA, Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Islomshunoslik markazi direktori o‘rinbosari



O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi do‘stlik rishtasi mustahkamlanib boryapti. Fikrimizni ikki davlatning hamkorligi har jahhada barqaror rivoj topayotgani isbotlaydi. Jumladan, madaniy, ma‘rifiy, ilmiy yo‘nalishdagi aloqalarimiz havas qilsa arzigulik bosqichga kirdi. Buning isboti o‘laroq, biz ham dunyoning 30 ga yaqin mamlakatidan tashrif buyurgan olimlar qatorida Movarounnahrning buyuk

shaxsi Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada ishtirok etyapmiz. Tadbir sabab Misr, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, BAA, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Qatar, Pokiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi davlatlar

muftiylari, islomshunos olimlari, davlat va jamoat arboblari, moturidiyshunoslari bilan suhbatlashdik. Taassurotimiz ham ajoyib. Ayniqsa, O‘zbekiston Prezidentining anjuman ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigini tinglab, juda mamnun bo‘ldik. Unda bunday ajoyib so‘zlar bor: “Biz xalqaro ilmiy-tadqiqot muassasalari, sizlar kabi musulmon olamida katta nufuzga ega bo‘lgan olimlar bilan hamkorlikda Imom Moturidiyning serqirra hayot yo‘li va ilmiy merosi, ushbu ta‘limotning bugungi kundagi ahamiyatini yanada chuqur o‘rganishga alohida e‘tibor qaratmoqdamiz”.

Bunday hamkorlik bizni, albatta, quvontiradi. Markaziy Osiyo yana dunyoga ezigulik mayog‘i bo‘lib xizmat qilayotganidan haqli ravishda ko‘nglimiz

yorishadi. Axir mintaqamiz, xususan, O‘zbekiston islom olamining juda ko‘p mutafakkirlariga beshik bo‘lgan yurt ekanidan biz ham hamisha g‘urur hissini tuyib kelamiz. Ayniqsa, Imom Abu Mansur Moturidiydek ulug‘ siymo merosidan bahramand bo‘lish bizni yanada yaqinlashtiradi. Aslida, Moturidiy aqidasi bilan yashar ekan, musulmonlar o‘rtasida hech qanday nizo bo‘lmaydi. Chunonchi, alloma ta‘limoti insoniyatni faqat ezu va xayrli ishlarga yetaklaydi. Do‘stu birodarlikka chorlaydi. Bejiz chet ellik olimlar ham Moturidiyning ilmiy merosiga alohida e‘tibor bilan yondashmayapti.

Bir so‘z bilan aytganda, Imom Abu Mansur Moturidiy butun islom olamining haqiqi ustozlaridan biri. Shuning uchun u haqida qancha gapirsak, ilmiy merosini qancha ko‘p o‘rgansak, shuncha kam. Uning xotirasiga atab qilinayotgan bunday ishlar esa, albatta, barchamizni xursand qiladi.

DAVR BU TA‘LIMOTNI CHUQUR O‘RGANISHNI TAQOZO ETMOQDA

Samarqanddagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya davomida teranroq his qilaypmanki, Imom Moturidiy bilan nafaqat o‘zbek zamini, balki mintaqaxalqlari ham faxrlanadi. Bu bejiz emas, albatta. Bir narsaga guvoh bo‘ldim va quvondim. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatda diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning boy ilmiy-ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish bo‘yicha puxta o‘ylangan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zaynobiddin AJIMAMATOV, O‘sh davlat universiteti professori



Diniy-ma‘rifiy sohadagi keng ko‘lamli islohotlar natijasida O‘zbekistonda moturidiyshunoslik ilmiy maktabi yaxshi shakllanibdi. Ushbu ezu ishlarning uzviy davomi sifatida “Moturidiylik — bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma‘rifat ta‘limoti” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilmoqda.

Konferensiyaning ahamiyati va dolzarbligi haqida gap ketganda, bugun Imom Moturidiy va uning ta‘limotini chuqur o‘rganishni taqozo etayotgan omillarni alohida qayd etish lozim. Jumladan, muqaddas islom dini niqobi ostida faoliyat yuritayotgan radikal guruhlar harakati kuchayib bormoqda. Bu xalqaro maydonda Imom Moturidiy ta‘limotini o‘rganishga ehtiyoj oshib borayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, moturidiylik maktabining bag‘rikeng g‘oyalari, asrlar davomida mintaqamizga mos holda shakllangan insonparvarlik ta‘limoti radikalizmga qarshi kurashning ta‘sirchan va samarali vositasi sifatida baholanmoqda.

Qirg‘iziston islomshunoslari ham Imom Moturidiy ta‘limotini chuqur o‘rganish, merosini tadqiq qilishda davom etmoqda, kitoblari tarjimai bilan shug‘ullanyapti. U o‘zidan aqida, tafsir, fiqh va usul al-fiqh sohalar bo‘yicha boy ma‘naviy meros qoldirgan. “Kitob at-tavhid”, “Ta‘vilot al-Qur‘on” kabi 20 ga yaqin asar yozgani manbalarda keltirilgan. Allomaning ta‘limotini kelgusi avlodlarga to‘laonli yetkazish mas‘uliyatini doim his qilib kelganmiz.

Tadbir doirasida Samarqand shahridagi muqaddas qadamjolar va tarixiy-madaniy yodgorliklarga sayohatimiz menda alohida taassurot qoldirdi.

O‘ZBEKISTON — ILM ZAMINI

So‘nmas KUTLU, Anqara universiteti ilohiyot fakulteti professori



Men haqli ravishda O‘zbekistonni ilm va madaniyat zmini deb atayman. Zero, har gal bu yerga kelganimda Moturidiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Lays Samarqandiy, Xorazmiy, umuman, ko‘plab yirik allomalar, olimlar ko‘z oldimdan o‘tadi. O‘z navbatida, Samarqandni ham ilm zmini deyish mumkin. Bu haqda tarixiy asarlarda ko‘p o‘qiganman. Shuning uchun ushbu zamanga mehrim bo‘lakcha. Ilmiy konferensiya doirasida yer yuzining sayqali bo‘lgan Samarqand bo‘ylab ziyorat tashkil etilgani benihoiya quvonarli.

Ziyorat chog‘i Samarqandning darhaqiqat ilm, ma‘rifat diyorini ekaniga yana bir bor

amin bo‘ldim. Birgina shu zaminning o‘zidan ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqani Samarqand nomini butun dunyoga ma‘lumu mashhur qiladi. Moturidiy yodgorlik majmuasida ulug‘ olim haqiga duo qildi.

Samarqandning tashrif qog‘ozi, o‘ziga xos ramziga aylangan Registon maydonini tomosha qildik. Shohizinda qarshisida chuqur o‘yga tolib, o‘tmishga sayr etdik. Shu ma’noda, bu yerdagi tarixiy obidalarining musulmon dunyosidagi ahamiyati yuqori.

Qolaversa, bunday boy madaniy merosning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni juda muhim. Ular islom madaniyati, qadriyatlaridan so‘zlayotganday. Islom qadriyatlarini, ayniqsa, tinchlik, bag‘rikenglik, mo‘tadillik ta‘limotlarini moturidiylik asosida musulmon ummatiga yetkazish bugunning muhim masalalaridan. Chunki dunyo musulmonlarining aksariyati Moturidiy asarlarini hujjat deb qabul qiladi, aqidasi tayanib deb biladi. Allomaning hidoyati bayrog‘i, musulmonlar aqidasi islom etuvchi,

ahli sunna peshvosi kabi yuksak unvonlar bilan sharaflanishi ham shundan. Qimmatli ma‘naviy, ilmiy meros qoldirgan ajdodlarga munosib voris bo‘lish biz, avlodlarning ular oldidagi qarzimiz. Bu borada O‘zbekiston tomoni ko‘rsatayotgan tashabbuslar alohida ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surayotgan muhim g‘oyalari ulug‘ shaxslarning ma‘rifiy ta‘limotlarini keng targ‘ib etishga xizmat qilayapti.

Dunyodagi qariyb 2 milliard musulmonning 800 millionga yaqini moturidiylik aqidaviy ta‘limotiga tayanadi. Zero, Imom Moturidiyning fiqh, tafsir va kalom ilmi kabi yo‘nalishlarda o‘zidan boy ilmiy meros qoldirganini ular yuksak qadrlaydi. Samarqandda o‘tayotgan bu kabi nufuzli tadbirlar orqali Moturidiyning ibratli hayot yo‘li, bebaho ilmiy merosini chuqur o‘rganishga keng yo‘l ochiladi. Islom olamining benazir olimi qoldirgan ulkan meros esa barchamizga birdek qadrlil bo‘lib qolaveradi.

9-may — Xotira va qadrlash kuni

VATAN RAVNAQI, TINCHLIGI VA HIMOYASI YO‘LIDAGI QAHRAMONLIK UNUTILMAYDI

Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, jang maydonlaridan omon qaytgan va front ortida mardona mehnat qilgan ajdodlarimizga chuqur hurmat, mehroqibat ko‘rsatish keyingi yillarda tom ma’noda milliy an‘anaga aylandi.

Bugungi tinch, osoyishta, erkin va farovon hayot uchun aziz jonini fido qilgan ajdodlarimizning yorqin xotirasini yod etib, ezu ishlarini munosib davom ettirish tinchlikni buyuk ne‘mat deb biladigan bag‘rikeng va olibjan xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Davlatimiz rahbarining “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabani 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga

tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlar ko‘lamini kengaytirish, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, front ortida mehnat qilgan faxriylarga yuksak hurmat ko‘rsatishning yorqin namunasiga aylandi. Mazkur hujjat asosida “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, front ortida mehnat qilgan faxriylar uyiga



Gulnora MA‘RUFOVA, Senat a‘zosi

borib, o‘sha yerning o‘zida ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etilmoqda. Bu esa bugungi yosh avlod qalbida vatanparvarlik va yurtga

sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yolg‘iz va kam ta‘minlangan urush qatnashchilarining yashash joylari ta‘mirlanib, obodonlashtirilmoqda. Ularga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatilyapti. Urush qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo‘lgan shaxslarga, front orti mehnat faxriylariga “Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabani 80 yilligi” yubiley medallari topshiriladi.

Shuningdek, qarorga ko‘ra, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ularni parvarish qilish maqsadida tibbiyot xodimlari (shartnoma asosida) birlashtirilgan holda doimiy ravishda patronaj xizmati yo‘lga qo‘yildi. Bu ham yurtimizda ularga bo‘lgan e‘tiborning yorqin namunasidir.



Qahramon jangchilarga ko‘rsatiladigan bunday e‘tibor va g‘amxo‘rlik inson qadrlini ulug‘lash ezu g‘oyasiga hamohangligi bilan ahamiyatli. Binobarin, yurtdagi tinchlik, xotirjamlik va go‘zal hayot o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilgani yo‘q. Bu munavvar kunlarning kelishi uchun ota-bobolarimiz hayotini xatarga qo‘yib, beomon janglarda ishtirok etgan.

Ikkinchi jahon urushida 2 million nafarga yaqin o‘zbekistonlik jangga otlangan bo‘lsa, ularning 800 mingga yaqiniga ona yurtiga qaytish nasib qilmagan. Gulday hayoti, yoshlik davri jangu jadallarda o‘tib, xoki

o‘zga yurtlarda qolib ketganlar xotirasini yod etish bugungi avlodning muqaddas burchidir.

Mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushida qatnashgan kishilar tobora kamayib bormoqda. Shunday ekan, ularni qancha qadrlasak, hurmat bajo keltirsak, e‘zozlasak, shuncha kam. Hayot bor ekan, xalqimiz bu qahramon jangchilari xotirasini hech qachon unutmaydi. Vatan va xalq ozodligi, kelgusi avlodlarning baxtu saodati yo‘lida mardlik va jasorat ko‘rsatgan insonlar xotirasi hamisha barhayot yashaydi.



Islohot

KIMYO SANOATIDAGI YANGILANISHLAR

TARMOQ IQTISODIYOTIMIZNING MUHIM DRAYVERIGA AYLANTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Oxirgi yillardagi islohotlar samarasida tarmoq oyoqqa turmoqda. Prezidentimiz bergan ko'rsatmalar esa soha yanada taraqqiy etishi, hali ishga solinmagan yangi imkoniyatlardan faol foydalanilishiga turtki bo'ladi.

Ekspertlar fikricha, sohaning izchil rivoji eksport salohiyatini oshirishga, muhim kimyoviy mahsulotlar importiga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Ayni paytda O'zbekistonda 180 turdan ortiq kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ular nafaqat

Pokiston, Afg'oniston, Eron, Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikistonga yetkazib berilmoqda.

Bu borada O'zbekiston kimyo sanoatining asosiy ishlab chiqaruvchilari — “Navoiyazot”, “Maksam-Chirchiq”, “Farg'onaazot”, “Ammofos-Maksam”, “Uz-Kor Gas Chemical” va Sho'rtan gaz-kimyo majmualari, shuningdek, Dehqonobod kaliy zavodi, Qo'ng'iro't soda zavodi va Qizilqum fosforit majmuasi jonbozlik ko'rsatmoqda.

Kimyo sanoatini transformatsiyalash deganda, zamonaviy texnologiyalar joriy etish,



TARMOQDA BOZOR TAMOYILLARI JORIY ETILIB, INVESTITSİYALARGA KENG YO'L OCHILDI. ISHLAB CHIQARISH ZANJIRINI KENGAYTIRISH UCHUN NAVOIY, FARG'ONA, QO'NG'IRO'TDA 3 TA KIMYOVIY KLAS TER, CHIRCHI Q VA JIZZAXDA 2 TA TEXNOPARK TASHKIL ETILDI. QO'QON SUPERFOSFAT ZAVODI TO'LIQ MODERNIZATSİYA QILINDI.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ichki bozorni ta'minlaydi, balki xorijga eksport ham qilinadi. Jumladan, o'tgan 2024-yilda qiymati 720 million dollarlik 3,6 million tonna mineral o'g'itlar ishlab chiqarilgan. 520 million dollarlik 50 dan ziyod mahsulot 40 dan ortiq davlatga eksport qilindi. Shundan 317 million dollari mineral o'g'itlar hamda 203 million dollari noo'g'it va organik kimyo mahsulotlari hissasiga to'g'ri keldi. Bu mahsulotlar Latviya, Ruminiya, Litva, Bolgariya, Estoniya, Turkiya, Xitoy,

ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, ekologik standartlarni oshirish nazarda tutiladi. Bu esa natijadorlikni oshirish bilan birga polimer materiallardan tortib, farmatsevtik substantsiyalar kabi yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Bunday modernizatsiya tadbirlari, o'z navbatida, global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyani ham kuchaytiradi.

Tarmoqda bozor tamoyillari joriy etilib, investitsiyalarga keng yo'l ochildi. Ishlab

chiqarish zanjirini kengaytirish uchun Navoiy, Farg'ona, Qo'ng'iro'tda 3 ta kimyoviy klaster, Chirchiq va Jizzaxda 2 ta texnopark tashkil etildi. Qo'qon superfosfat zavodi to'liq modernizatsiya qilindi. Jumladan, so'nggi besh yilda 23 ta yangi korxona ochilib, 4 mingdan ortiq ish o'rni yaratildi. Tarmoqqa xalqaro brendlar kirib keldi, kichik tonnali mahsulotlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Bularning samarasida kimyo sanoatida ishlab chiqarish 1,5 barobar o'sdi. 2024-yil

yakunlari bo'yicha mamlakatimizda ishlab chiqarilgan kimyo mahsulotlarining umumiy qiymati 1,4 milliard dollarga baholanmoqda.

Kimyo sohasi an'anaviy tarzda, ayniqsa, sanoat klasterlari joylashgan hududlarda bandlik darajasi ortishini ta'minlaydi. Zamonaviy kimyo korxonalari barpo etilishi bilan infratuzilma rivojlanadi, mutaxassislar malakasini oshirishga e'tibor kuchayadi va hududlarda aholi turmush darajasi yuksaladi.

Yuqorida qayd etganimiz — besh yilda sohada 4 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgani so'zimizni isbotlaydi. Raqamlardan ham tarmoqning naqadar muhim va mamlakat taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo'lida drayver sohalardan biri ekani ma'lum bo'ladi. Albatta, o'sish aniq belgilangan maqsad va rejalariga

asoslangan. Xususan, sohadagi islohotlarga davlatimiz rahbarining 2019-yil 3-apreldagi “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra tasdiqlangan 2019-2030-yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturida belgilangan vazifalar ijrosi orqali erishilyapti.

Kelgusida esa bundan ham baland marallarni zabt etish maqsad qilingan. Birgina joriy 2025-yil birinchi choragida tarmoqda 181 million dollar investitsiya o'zlashtirilgan, 39 million dollarlik 3 ta loyiha ro'yogba chiqarilgan. Endi ikkinchi chorakda 170 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilishi hisobiga “yashil” vodorod va sian tuzlari korxonalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Yaqinda davlatimiz rahbariga qilingan taqdimotda belgilab olingan vazifa va maqsadlar soha taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadi. Xususan, mamlakatimizdagi klasterlar hamda texnoparklarda 2025-2035-yillarda umumiy qiymati 5 milliard dollarlik 56 ta investitsiya loyihasi hisobiga suyuq va quruq sian tuzlari, “yashil” vodorod, monoammoniyfosfat (MAF), murakkab mineral o'g'itlar (NPK), melamin, sirka kislotasi, vinilatsetat, polioksimetilen (POM) va boshqa mahsulotlar mahalliyashtiriladi.

Tarmoqni raqamlashtirish jarayoni davom ettirilib, hamkor sohalor bilan integratsiyasi kengaytiriladi. Kimyo zavodlarining yagona g'aznachilik tizimida qo'shimcha modullar ochiladi. “Yagona raqamli platforma” yakuniga yetkazilib, korxonalarning 15 ta iqtisodiy ko'rsatkichi aks ettiriladi.

Yana bir muhim vazifa — energiyasamaradorlik. Energiyani tejash hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish orqali tanarxni kamaytirish zarurligi ta'kidlandi. Eng muhimi, mutasaddilarga hozirgi zamon talablari va kelgusi iqtisodiy prognozlar asosida kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bunda yangi yo'nalishlarni o'zlashtirish orqali tarmoqni diversifikatsiyalash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida ahamiyat qaratish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Kadrlar masalasiga urg'u berilib, “oliy ta'lim muassasasi — fan — ishlab chiqarish” zanjirini yo'lga qo'yish zarurligi qayd etildi. Kadrlar tayyorlash va ularni ishlab chiqarishga jalb etish, ilmiy texnologik bazani rivojlantirishga qaratilgan ko'p bosqichli dasturni amalga oshirish taklifi bildirildi. Ushbu dastur doirasida kimyo sanoati uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazini ochish ko'zda tutildi. Ayni shu yo'nalishda e'tiborga molik tashabbuslardan yana biri “Xim-Rgo” sohaviy kasbiy rivojlanish platformasini yaratish loyihasidir. Bu platforma kimyo-texnologik va shu sohaga yaqin yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalar uchun ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishga qaratilgan. Bular natijasida mamlakatimiz har yili kimyo sohasi uchun 2-3 ming nafar malakali mutaxassis, muhandis tayyorlash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Ayni paytda amalga oshirilayotgan dasturlar, qulay investitsion muhitni hisobga olgan holda O'zbekiston kimyo sanoati yaqin 5-10 yilda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etishi va yangi industrial iqtisodiyotda markaziy o'rnlardan birini egallashi kutilmoqda. Kimyo sohasining rivoji esa iqtisodiyotning qator muhim tarmoqlari taraqqiyotiga zamin yaratadi. O'zbekiston iqtisodiyotining yanada barqaror bo'lishi, karrasiga o'tishiga asos hozirlaydi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Qaror va ijro

Har kungi odatiga ko'ra Turdi bobo bugun ham tongda turib, mahallani bir aylanib kelish uchun tashqariga chiqdi. Sokin, ozoda ko'cha bo'ylab ohista qadam tashlab borarkan, dastlab qaysi tomonga borishga bir oz ikkilandi. Narigi ko'chadagi hasharhilar yodiga tushib, ularning ishini bir kuzatib, “hormang” deyishga shoshildi.

Baraka topsin, mahalla odamlari yaxshi tashabbus ko'rsatibdi. Har bir ko'chani obod qilish istagida qo'ni-qo'shnilar bir yoqadan bosh chiqarib, yo'l chetiga tok ekib, endi uni ko'tarish uchun vayish qurishmoqda ekan. Bobo oldin shunchaki gap bo'lsa kerak deb yurgandi. Kecha hasharhing ustidan chiqib, mamnun bo'ldi. Ishga bosh qo'shayotganlarga omonlik tiladi. Bugun ham hoynahoy ish qizg'in boshlangandir.

Ota ko'cha tomonga burilarkan, negadir jimlikdan ko'ngli xavotir oldi. Lekin bir muddat o'tib, katta yo'lining usti temir panjaralar bilan vayish qilib chiqilganini ko'rib, dili yayradi. Uzunasiga bir tekisda ko'chaning oxiriga qadar tortilgan vayish hududga boshqacha ko'rinish berib turardi. Ota erinmasdan oxiriga qadar bordi. Har bir darvoza yonida allaqachon bo'y ko'rsatib qolgan tok novdalariga birma-bir qarab chiqdi. Nihollar yaxshi tutibdi. Hademay bu yerning chiroyi ko'zni quvnatadi. Ota ortiga qaytarkan, ayni yigitlik chog'i yodiga tushdi...

...O'shanda 16 yoshda edi. Ko'pchilik qatori ularning otilari ham shu yerga ko'chib kelgandi. Yuklarini ot-aravaga ortib yo'lga tushgan tog'liklar o'z makonlarini tashlab ketishni xohlamasdi. Lekin dalani o'zlashtirish, paxtaga ishchi kerakligi bois, tog'dagilar bu yerga olib kelindi. Ammo oson kechmagandi o'shanda. U paytlar yaxshi yashash, inson qadri haqida gapirib ham bo'lmasdi. Bunday o'ylab qarasa, umirning asosiy qismi dalada o'tibdi. Yomon tomoni, keyinchalik aholi soni ortib, yangi ish o'rnlari yo'qligi sabab ko'pchilik bekor qoldi. Ayniqsa, maktabni tugatgan yoshlar ish topolmay, qayerga borishini bilmay boshi qotdi. Aksari chetga ketib, oilasidan uzozda sarson bo'ldi. Bugun esa boshqacha. Imkoniyatlarga keng yo'l ochildi, hovlidan chiqmasdan pul topishning iloji bor. Chamalab ko'rsa, keyingi paytda yoshlar xorijga ketmay qo'yibdi. Axir mehnat qilsa, ostona hatlamasdan mablag' kirib kelayotgani bor gap. Qani edi hozir o'zi ham yosh bo'lib qolsa. Shunday farovon zamonda javlon urib, yurt uchun mehnat qilsa...

Aslida, bunday kunlarning qadriga yetmaganlar qancha? Indamasa, tomorqasiga biror narsa ekishni xohlashmaydi... Turdi ota



shularni o'ylarkan, mahalla raisini topib, qolgan ko'chalarni ham xuddi shunday qilish kerakligini tayanishladi.

— 1958-yili tog' etagida joylashgan Denovbola qishlog'idan Kitob tumani markaziga yaqinroq bo'lgan manzilga ko'chib kelgandik, — deydi Turdi ota Odinayev. — Keyinchalik bu joyda Denov mahallasi tashkil etilib, shu yerdagi yashab qoldik. O'sha paytlar bu yerdagi yashash ancha mushkul edi. Kunimiz paxta dalasida o'tardi. Biz, tog'liklar o'z tomorqamizda mehnat qilib, shundan daromad topib o'rganamiz. Lekin hovliga biror narsa ekmoqchi bo'lsak, ruxsat ham berishmasdi. Har kuni tongda eshik oldida brigadir baqirib turardi. Ilojisiz dalaga ketardik. Bunga ko'nikishning o'zi bo'lmadi. Ancha vaqtgacha shu zayil yurdik. Shukrki, bugun inson qadri yuksalib, odamlar yaxshi yashay boshladi. Hozir mahallamizdagi hech bir xonadonning tomorqasi bo'sh turganini ko'rmaymiz. Yo'llarimiz ravon, ko'chalarni obod bo'lganini aytmaymizmi!

Bugun Kitob tumanida eng namunali manzillardan biri hisoblangan Denov mahallasida 830 ta xonadon mavjud. Hududning asosiy drayveri shu paytgacha uzumchilik, dehqonchilik bo'lgan, bugungi kunda limonchilik ham qo'shilgan. Mahalla raisi



Bahovuddin Xudoyberdiyevning ta'kidlashicha, aholining aksariyati tomorqani asosiy daromad manbaiga aylantirib olgan. Misol uchun, Saidali Qurbonov har yili to'rt sotix yerga pomidor, kartoshka ekadi. Shuningdek, tok ko'chalarini yetishtirishni, bodanachilikni yo'lga qo'ygan. Bir yilda ikki yuz million so'mga yaqin daromad topmoqda. Qo'shmisi Zayniddin Siddiqov ham aynan dehqonchilik ortidan turmush tarzini yaxshilab olgan. Har yili hovlisiga ertaki kartoshka ekib, bozorga birinchilardan bo'lib chiqaradi.

— “Me'natning tagi rohat” degan maqolni o'zimizga shior qilib olganmiz, — deydi Bahovuddin Xudoyberdiyev. — Shu sabab bo'lsa kerak, bugungi kunda mahallamiz hududida ishsiz yo'q. Kambag'al oilalar juda kam qoldi. Aholimiz dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Har yili bozorda birinchilardan bo'lib bizning

poliz mahsulotlarimiz sotuvga chiqadi. Bundan tashqari, uzumchilik ham rivojlangan. Eng muhimi, ko'pchilik o'zining bandligini ta'minlab, daromad topmoqda. Natijada aholining turmush tarzi yaxshilanmoqda.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida 2025-yil yakuniga qadar 60 tuman va shaharni kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Mazkur ro'yxatga Kitob tumani ham kiritilgan. Demak, joriy yil yakuniga qadar Kitob tumani kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylanadi. Buning uchun yil davomida qator loyihalar ishga tushiriladi. Turli yo'nalishlarda yangi ish o'rnlari ochiladi.

Kitob tog'li hudud bo'lgani bois, asosiy

drayveri bog'dorchilik hamda qurilish sanoati. Jumladan, tuman tog'larida qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun xomashyo resurslari juda katta. Tuman hokimligi mas'ullari bergan ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda 618 ta sanoat korxonasi ro'yxatdan o'tgan.

Joriy yilda qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, mavjud xazinalardan to'liq foydalanish maqsadida tumanda tashkil etilgan “Kitob” erkin iqtisodiy zonasining 37 gektarli maydoniga qo'shimcha 50 gektar yer ajratish orqali qurilish materiallarini qayta ishlovchi, loyiha qiymati qariyb 30 million dollarlik 100 ta korxona ochish reja qilingan.

Tabiyy geografik joylashuvi jihatidan hududning turizm, xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Jumladan, tumanda O'rta Osiyoda yagona bo'lgan ekologik-astronomik turistik maskan — Kitob kenglik stansiyasi mavjud. Bundan tashqari, Hazrati Bashir, Sayid Ne'matullo, Xo'ja Imganakiy, Oqsuv, Hazrati Sulton va Qabri Oxun ziyoratgohlari mavjud. 305 ta madaniy obida joylashgan. “Qaynar” va “Bashir” MFYlari ixtisosligi turizmga moslashgan bo'lib, ulara mahalliy va xorijlik sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi ko'plab uy mehmonxonalari ochish mumkin.

Taxtaqoracha dovoni etagidagi Qaynar mahallasida hozir 30 dan ortiq xizmat ko'rsatish obyekti va 20 dan ziyod uy mehmonxonasi, Bashir mahallasida 50 dan ortiq uy mehmonxonasi mahalliy va xorijlik sayyohlarga xizmat ko'rsatib kelmogda.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida tumanda xizmatlar hajmi 1801,5 milliard so'mni tashkil etib, 110,6 foiz o'sgan. Xorijlik sayyohlar soni 42 ming va mahalliy sayyohlar soni 350 ming nafarga, turistik xizmatlar eksporti 15 million dollarga yetkazildi. O'tgan yili, asosan, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Xitoy, Yevropa va qo'shni davlatlardan sayyohlar keldi.

— Turizm yo'nalishida hali qilinadigan ishlarni juda ko'p, — deydi Kitob tumani hokimi Rustam G'ofurov. — Hozir yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda. Rejamizga ko'ra, Qaynar qishlog'ida “Qaynarsoy village” MCHJ tomonidan 16 gektar maydonda 200 ming kishiga xizmat qiladigan 20 million dollarlik Qaynar sayyohlik zonasi tashkil qilinadi. Ushbu maskanda 1,5 kilometrli dor yo'li, 100 o'rinni yozgi maxsus maktab, 150 o'rinni mehmonxona, 30 o'rinni xostellar, sanatoriya, restoran, ochiq va yopiq hovuzlar, sport-sog'lomlashtirish maydonchalari, shuningdek, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat turlari tashkil etiladi. Hozir mazkur loyihaning birinchi bosqichi ishga tushirilib, bugungi kungacha 5 million dollar investitsiya kiritildi.

Taxtaqoracha dovonida joylashgan sobiq “Shabada” oromgohi negizida 6 gektar maydonga ega 44 ta lot auktsion savdoga chiqarilib, tadbirkorlik subyektlariga sotildi. Ayni paytda zamonaviy loyihalar asosida 2-3 qavatli dam olish maskanlari qurilmoqda.

Bundan tashqari, dovon yo'li atrofida “Voha mash'al” MCHJ tomonidan kapsula shaklidagi 20 dona dam olish uyi o'rnatiladi. Hozir tadbirkor Xitoydan 220 ming dollarlik kapsula uylar olib kelmogda.

Yuqoridagi qarorda belgilanganidek, 2025-yil oxirida Qashqadaryoda Qarshi va Shahrisabz shaharlari kabi Kitob tumani ham kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududlar qatoridan joy oladi. Eng muhimi, odamlarning turmush tarzida o'zgarish ro'y berib, ko'ngillari ham, manzillari ham obod bo'ladi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI — YANGI O‘ZBEKISTONDA SIFATLI TA’LIM GAROVI

“

Universitet 2023-yildan QS Asia University Rankings reytingida Osiyoning eng yaxshi 1000 ta universiteti reytingiga kirdi, yildan yilga o‘z o‘rnini yaxshilab, 2025-yilda 678-o‘ringa ko‘tarildi. Dunyo bo‘yicha jami 1050 tadan ortiq OTM ishtirok etgan GreenMetric xalqaro agentligi reytingida 353-o‘rinni egalladi.



Abdug‘affor QIRG‘IZBOYEV, universitet rektori, tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Mazkur farmon va qarorlarda pedagoglar tayyorlash tizimini zamon talablariga mos ravishda transformatsiya qilishning majmuaviy chora-tadbirlari belgilab berildi.

Shuningdek, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy talablarga javob bera oladigan raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashni ta’minlash maqsadida har bir pedagogika oliygohi uchun aniq manzilli chora-tadbirlar va maqsadli ko‘rsatkichlar tasdiqlanib, o‘quv jarayoniga talabalarda mustaqil ta’lim olish, tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodikalmi joriy etish vazifalari belgilandi.

Sohadagi islohotlar natijadorligi bo‘yicha o‘tkazilayotgan yig‘ilish va taqdimotlarda pedagogika oliygo‘hlari bilan maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari o‘rtasidagi uzviylik to‘liq ta’minlanmayotgani qayd qilinmoqda.

Bu esa qaysidir ma’noda 2000-yillar boshiga kelib, pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarining kadrlar buyurtmachisi — xalq ta’limi tizimidan alohida faoliyat ko‘rsatishi belgilangani bilan bog‘liq, albatta.

Haqiqatan, hozirgi kunda 31 ta davlat, 40 ta nodavlat va 5 ta xorijiy oliygoh filiallarida pedagog kadrlar tayyorlanayotgan bo‘lsa, birgina Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kadr buyurtmachisi bo‘lgan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufida.

Shu o‘rinda universitet Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tgan 2022-yildan beri erishilgan yutuqlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Birinchidan, universitetning o‘quv resurslarini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish orqali pedagogik ta’lim sifatini yaxshilash, universitet faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha samarali ishlar bajarildi.

Universitet 2023-yildan QS Asia University Rankings reytingida Osiyoning eng yaxshi 1000 ta universiteti reytingiga kirdi, yildan yilga o‘z o‘rnini yaxshilab, 2025-yilda 678-o‘ringa ko‘tarildi. Dunyo bo‘yicha jami 1050 tadan ortiq OTM ishtirok etgan GreenMetric xalqaro agentligi reytingida 353-o‘rinni egalladi.

Universitetda byudjetdan tashqari mablag‘ topish bo‘yicha ishlar tizimli tashkil etildi. Shunday mablag‘lar hisobidan 2022-yildan boshlab 5 ta fakultet uchun foydalanilmay turgan o‘quv binolari kapital ta’mirdan chiqarildi, 2200 o‘rinli 3 ta o‘quv binosi foydalanishga topshirildi. 2022-yilda 200 o‘rinli TTJ binosi kapital ta’mirlandi, 2023-yilda 800 o‘rinli talabalar oshxonasi qurildi. 2024-yilda yangidan 1500 o‘rinli TTJ binosi davlat-xususiy sheriklik asosida ishga tushirildi.

Universitet uchun Yangi Toshkent shahri hududidan 40 gektar maydonda 20 ming o‘rinli o‘quv binolari, 5 ming o‘rinli yotoqxon, innovation pedagogik klaster faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida 300 o‘rinli bog‘cha, 616 o‘rinli maktab, 588 o‘rinli akademik litsey, shuningdek, zamonaviy sport kompleksi, madaniyat saroyi, amfiteatr va boshqa



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



obyektlarni o‘z ichiga olgan kampus qurilishi belgilandi.

Ikkinchidan, akademik, tashkiliy boshqaruv sohalari tubdan isloh etilib, xalqaro talablarga muvofiq transformatsiya qilindi. 2023-yildan boshlab universitetga davlatimiz rahbarining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berildi.

2025-yilga kelib esa universitet boshqaruv tizimining ISO:21001 (Educational organizations — Management systems for

educational organizations) talablariga mos ekani to‘g‘risida Slovakiyaning “CERT INTERNATIONAL” xalqaro sertifikatlashtirish tashkiloti xulosasi olindi va tegishli sertifikatlar topshirildi.

O‘zbekistonda shu kunga qadar bor-yo‘gi 4 ta oliygoh — Toshkent davlat stomatologiya instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Toshkent kimyo xalqaro universiteti hamda Toshkent shahridagi INHA universiteti ISO 9001:2015 xalqaro standart sertifikatlariga ega edi.

Uchinchidan, pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni hisoblangan ta’lim dasturlarini takomillashtirish borasida katta islohotlar qilindi. Xususan, kadr buyurtmachilari takliflari inobatga olinib, turdosh yetakchi xorijiy oliygohlar tajribalari asosida o‘quv reja va dasturlar qayta ko‘rib chiqildi. Ta’lim dasturlarini xalqaro andozalarga mos transformatsiya qilish ishlari bajarildi. Vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ta’lim dasturlari akkreditatsiyaga tayyorlandi. Shu harakatlar natijasi o‘laroq, 2024-yilga kelib, Germaniyaning ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish agentligi — ASIIN tomonidan universitetning 4 ta ta’lim dasturi xalqaro standartlarga mos deb topildi. Endilikda dunyoning 64 ta davlatida mazkur yo‘nalish bitiruvchilari diplomlari tan olinadi. Bu ishlar jadal davom ettirilmoqda. 2025-yilda yana 4 ta ta’lim dasturi xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan auditdan o‘tkazilmoqda.

Ushbu tashkilotdan hozirgacha respublikamizdagi 2 ta oliy ta’lim muassasasi — “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”



O‘zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi oldidan

AQLIY CHINIQISH — JISMONIY BARKAMOLLIK KAFOLATI

Boshlanishi 1-betda

Mazkur yo‘nalishlardagi ishlarga munosib hissa qo‘shish maqsadida O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi ham turli sohalarida mehnat qilayotgan xodimlar va ularning oila a‘zolari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish, ularni faollikka keng jalb etish bo‘yicha ko‘lamli ishlar qilib kelmog‘da. Bu orqali xodimlar salomatligini mustahkamlash hamda mehnat jamoalarida sog‘lom turmush tarzi barqarorligini ta’minlashga ko‘maklashish asosiy maqsad hisoblanadi. Shu harakatlarning uzviy davomi sifatida O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimidagi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi huzurida shaxmat maktabi tashkil etildi, mehnat jamoalarida shaxmat klublari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, turli mehnat jamoalarida shaxmat musobaqalari tashkil etish yuzasidan kalender reja tasdiqlanib, havaskor shaxmatchilar o‘rtasida turnirlar o‘tkazish tizimi yaratildi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 8-maydagi “2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash



maqsadida shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kubogi uchun tashkil etilgan musobaqalar mazkur yo‘nalishlardagi ishlarning uzviy davomidir.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi oldidan Sport vazirligi va O‘zbekiston

shaxmat federatsiyasi ishtirokida tashkil etilgan mazkur shaxmat musobaqasi 3 bosqichda o‘tkazildi hamda yurtimizda mehnatkashlar, yoshlar shaxmat bo‘yicha qobiliyatini namoyon qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratib bergani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Xalqaro shaxmat federatsiyasining amaldagi qoidalariga muvofiq o‘tkazilgan musobaqalarning birinchi va ikkinchi bosqichlari 12 mingdan ziyod korxona, tashkilot va muassasada faoliyat ko‘rsatayotgan 85 mingdan ortiq kishini qamrab oldi. Quyi

bosqichlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan havaskor shaxmatchilardan 56 nafari musobaqaning respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Respublika bosqichi ishtirokchilari bo‘lgan turli soha egalari kasaba uyushmalari tomonidan poytaxtimizda iliq kutib olinib, zamonaviy qulayliklarga ega “Chinobod plaza” sanatoriysiga joylashtirildi. Bu yerda ularning dam olib, musobaqalarga yuksak darajada tayyorgarlik ko‘rish uchun barcha zarur shart-sharoit va qulayliklar yaratib berildi.

Musobaqalarning dastlabki kunlari 28 ayol va 28 erkak havaskor shaxmatchi shveysarcha usulda o‘zaro kuch sinashdi. Shu taxlit musobaqalarning birinchi kuni ishtirokchilar 1-turdan 6-turgacha bo‘lgan bahslarda, ikkinchi kuni esa 7-turdan 9-turgacha bo‘lgan musobaqalarda rapid yo‘nalishida aqliy salohiyatini sinovdan o‘tkazdi. O‘ziga xos kombinatsiyalarga boy bo‘lgan har bir bahs yurtdoshlarimiz shaxmatda yuqori salohiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.

Hakamlar hay‘ati tomonidan musobaqaning respublika bosqichi g‘oliblari to‘plagan ochkolari soniga qarab aniqlandi. Taqdirlash marosimida musobaqaning final bosqichida qatnashgan 56 ishtirokchiga O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan maxsus diplom va “Chinobod plaza” sanatoriysida salomatligini mustahkamlashi uchun bepul

universiteti tashkil etildi va universitet respublikada pedagog kadrlar tayyorlash bo‘yicha yetakchi oliygoh etib belgilandi.

Respublikada pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida yangi sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida maktabgacha va maktab ta’limi vazirining pedagogik ta’limni rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etilib, bir vaqtning o‘zida Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori vazifasini bajarishi belgilandi.

Universitet boshqaruv tizimini “Yangi O‘zbekiston” universiteti tajribasi asosida tubdan takomillashtirish va mavjud 14 ta fakultetni maqbullashtirish orqali 6 ta pedagogika oliy maktabi tashkil etish belgilandi.

Xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda universitetning xalqaro ta’lim dasturlari joriy etilgan ta’lim yo‘nalishlarida dars berish uchun professor-o‘qituvchilarni tanlab olish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Universitetga xalqaro ta’lim dasturlari joriy etilgan yo‘nalishlar uchun ularning talablaridan kelib chiqib talabalarni qabul qilishda mustaqil ravishda qo‘shimcha va alohida imtihonlar — suhbat, test, insho, keys topshiriqlari va boshqalar tashkil etishga ruxsat etiladi.

2026/2027 o‘quv yilidan boshlab alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida “Gospital pedagogika” magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

Universitetda akademik faoliyat raqamlashtirilgan boshqarish tizimi (Learning Management system)ga o‘tkaziladi va “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” (HEMIS) axborot tizimi bilan integratsiya qilindi.

Hududlardagi 11 ta pedagogika oliygohi hamda Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali negizida tashkil etilgan Kattaqo‘rg‘on pedagogika instituti, O‘zbekiston — Finlyandiya pedagogika instituti negizida tashkil etilgan Samarqand davlat pedagogika instituti Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi.

2026/2027 o‘quv yilidan ushbu pedagogika oliygo‘hlarida ham boshqaruv tizimi takomillashtirilishi, xalqaro ta’lim dasturlari bosqichiga-bosqich joriy etib borilishi belgilandi.

Farmon ilovalari bilan pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi hamda pedagogik ta’limni rivojlantirish respublika kengashining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Chora-tadbirlar dasturi 2025-2030-yillarda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha 5 ta yo‘nalishdagi 22 ta yaklit vazifani o‘z ichiga olgan bo‘lib, amalga oshirish mexanizmlari belgilangan.

Shuningdek, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab pedagog kadrlar tayyorlash faqat kunduzgi va kechki ta’lim shakli bo‘yicha tashkil etiladi, sirtqi ta’lim shakliga qabul amalga oshirilmaydi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab respublikamizda faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida talabalarning bilimlarini tashqi diagnostika qilish tizimi joriy etiladi. Bunda diagnostika natijalariga ko‘ra pedagog kadrlar sifati belgilangan talablarga javob bermaydigan ta’lim yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlashni cheklash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilandi.

Qabul qilingan ushbu tarixiy farmon pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish hamda yagona konseptual yondashuv asosida oliy ma’lumotli pedagog kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, pedagogika oliygo‘hlari tomonidan Yangi O‘zbekiston taraqqiyoit strategiyasida belgilangan vazifalar to‘liq bajarilishiga, pedagog kadrlar tayyorlash tizimining maktabgacha va maktab ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashishiga hamda jamiyatda pedagog maqomi oshishiga xizmat qiladi.

Muhabbat O‘RMONBEKOVA,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari
federatsiyasi Matbuot
xizmati rahbari

